

joriy oyning 15-kunigacha to'lanadi. Ko'rsatiladigan xizmatlarga tasdiqlangan tarif shartnomaga ilova qilinadi.

4. «Bajaruvchi»ning huquq va majburiyatlari

- 4.1. «Bajaruvchi» jo'natmalarni qabul qilib olingen paytdan ular oluvchiga topshirilgan paytgacha jo'natmalarining saqlanishini ta'minlash yuzasidan barcha zarur choralami ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
- 4.2. «Bajaruvchi» «Buyurtmachining» jo'natmalarini O'zbekiston Respublikasi viloyat markazlarigacha 48 soat mobaynida yetkazib berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi, dam olish va bayram kunlari bundan mustasno.
- 4.3. «Bajaruvchi» zaruriyatga ko'ra «Buyurtmachi»dan «Bajaruvchi» orqali yuboriladigan, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi yoki tegishli organlar tomonidan rasmiylashtirilgan mazkur jo'natmani olib chiqishga ruxsatnoma talab qilish huquqiga egadir.
- 4.4. «Bajaruvchi» yetkazib beriladigan jo'natmalarni qo'riqlash tartibini, shuningdek yuborilayotgan jo'natmalarni turlari va cheklangan normalarini ishlab chiqishi va belgilashi hamda tashishlarning navbatma-navbatligini belgilash huquqiga egadir.

5. «Buyurtmachi»ning huquq va majburiyatlari

- 5.1. «Buyurtmachi» «Bajaruvchi» orqali yuboriladigan maxfiy jo'natmalarni O'zbekiston Respublikasining maxfiy ish yuritish talablariga muvofiq rasmiylashtirishga majburdir.
- 5.2. «Buyurtmachi» maxfiy bo'limgan paketdag'i jo'natmalarni xalqaro pochta standartlariga muvofiq rasmiylashtirishi shart (konvertning chap yuqori burchagida jo'natuvchining nomi, uning manzili, shahar, respublika, konvertning o'ng quyiqismida oluvchining nomi, uning manzili, shahar, davlat, telefon), manzil ko'rsatkichidan oldin «Qayerdan» va «Qayerga» («Kimga») so'zlarini yozishi kerak.
- 5.3. «Buyurtmachi» manzilga oid ma'lumotlarni va paketlardagi boshqa yozuvlarni yozuv mashinkasida bosmaxona usulida, siyoh yoki sharikli ruchka bilan aniq va tushunarli qilib (siyoh yoki pasta qora, ko'k yoki binafsha rangda bo'lishi kerak) yozishi shart. Oluvchining immanzili qisqartirilmasdan yozilishi zarur.
- 5.4. Paketning orqa tomoniga «Buyurtmachi» konvert yelimlangan chiziq bo'yicha barcha qopqoqlarda o'zining mastika muhri ottiskini qo'yishi shart.
- 5.5. Yuridik manzillar, bank rekvizitlari, telefon raqamlari o'zgargan taqdirda tomonlar bir-birini yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini o'z zimmalariga oladilar.
- 5.6. Agar jo'natmalar «Buyurtmachi»ning binosida qabul qilinsa, «Buyurtmachi» «Bajaruvchi»ga jo'natmalarni qabul qilish uchun alohida jo'natmalar bilan ishlashga moslashtirilgan xona bilan ta'minlashi zarur.
- 5.7. Agar jo'natmalar «Buyurtmachi»ning binosida qabul qilinsa «Buyurtmachi» bir sutka oldin «Bajaruvchi»ga buyurtma berishi kerak.
- 5.8. «Buyurtmachi» «Bajaruvchi» orqali yuboriladigan jo'natmalarning og'irligini o'zi tortib ko'rish va reestrlarda shaxsan qayd etish huquqiga egadir.
- 5.9. «Buyurtmachi» «Bajaruvchi» tomonidan jo'natmalar topshirilganligi to'g'risida ma'lumotnomasi so'rash huquqiga egadir.

6. Tomonlarning javobgarligi

- 6.1. Jo'natmalar o'z vaqtida yetkazib berilmagan yoki yetkazilmagan taqdirda «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ga o'z vaqtida yetkazib berilmagan jo'natmalarining har bir kechiktirilgan kuni uchun 0,5 foiz, biroq o'z vaqtida yetkazib berilmagan yoki yetkazilmagan jo'natmalar umumiy summasining 50 foizidan ko'p bo'limgan miqdorda penya to'laydi.
- 6.2. Yuborilayotgan jo'natmalarga «Bajaruvchi»ning aybi bilan zarar yetkazilgan taqdirda «Bajaruvchi» qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.
- 6.3. «Bajaruvchi» tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarga haq to'lanmaganligi uchun «Buyurtmachi» «Bajaruvchi»ga o'zi to'lashdan bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.